

Hurmatli oilalar:

Biz noyabr oyi boshlarida sariq avtobus xizmatini taqdim etishda uzilishlar yuz berishi ehtimoli haqida sizni xabardor qilish hamda bunday holatda sizni qanday-qo'llab quvvatlashimiz haqida ma'lumot taqdim etish uchun bog'lanmoqdamiz. Biz farzandingizning ta'limi uchun ishonchli transport xizmatlarining ahamiyatini tushunamiz. Agar avtobus xizmatida uzilish yuz bersa, har bir o'quvchining maktabga uzilishlarsiz qatnashini ta'minlash ustuvor maqsadimizga aylanadi.

Nyu-York shahar davlat maktablari avtobus kompaniyalaridan uzilish yuz berishi haqida rasmiy bildirgi olmagan bo'lsa-da, biz buning 2025-yil 3-noyabrdan boshlab yuz berishini tushunamiz. Biz vaziyatni diqqat bilan kuzatmoqdamiz va maqsadimiz buning o'quvchilarimiz va ularning oilalariga ta'sirini minimallashtirishdan iborat. Eng oxirgi yangiliklar va mavjud resurslar haqida ma'lumot olish uchun quyidagi axborot bilan tanishish va (schools.nyc.gov/transportation) veb-saytimizga tashrif buyurishda davom eting, chunki biz sizning vaziyat haqida hamda mavjud resurslar haqida boxabar bo'lishingizni istaymiz.

- **Sariq avtobus xizmatlarida uzilish yuz berganda yuboriladigan bildirishnomalar:** Maktabingiz sizga avtobus xizmatlarida uzilish yuz berganda va buning farzandingizga ta'siri borligi yoki yo'qligi haqida xabar beradi. Bildirishnomalar farzandingizning maktabiga taqdim etgan kontakt ma'lumotlaringizdan foydalanib yuboriladi. Maktabingizdagi ma'lumotlaringiz va NYC Schools hisobingiz (NYCSA) aniq ekaniga ishonch hosil qiling (batafsil ma'lumot: schools.nyc.gov/NYCSA).
- **Nyu-York shahar davlat maktablarining onlayn resurslari:** Oilalar uchun transportga oid resurslar veb-saytimizda taqdim etiladi: schools.nyc.gov/transportation. Bu yerda siz OMNY kartalari, o'quvchilar va oilalar uchun muqobil transport vositalari, davomat jarayonlari va sariq avtobus xizmati tiklanguncha taqdim etiladigan boshqa yordam turlari haqida ma'lumotlarni topishingiz mumkin. Bu sahifaga imkon qadar tez-tez kirib turing, chunki undagi ma'lumotlarni muntazam yangilab boramiz.
- **Ijtimoiy tarmoqlardagi yangilanishlar:** Undan tashqari, biz yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar orqali berib boramiz (@NYCSchools on [Facebook](#), [Twitter](#) va [Instagram](#)).

- **Qo'shimcha ma'lumot:** Sariq avtobus xizmatiga oid eng oxirgi yangiliklar va axborot olish uchun istalgan vaqtda 311 raqamiga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.
- **Uzilish yuz berganda taklif etiladigan muqobil transport vositalari:** Nyu-York shahar davlat maktablari sariq avtobus xizmatidan foydalanadigan oilalar uchun muqobil transport vositalarini tashkillashtirish borasida faol ish olib bormoqda. Bu holat ta'sir etgan barcha oilalardagi o'quvchilar va ularning parvarishlovchilari bepul OMNY kart olish imkoniga ega bo'ladi. Qo'shimcha ravishda, NYCPS individual ta'lim dasturi (IEP) yoki 504-qonunga ko'ra imtiyozlar rejasi (504) bo'yicha transportdan foydalanish tavsiya etilgan o'quvchilarga; sariq avtobus xizmatidan foydalanadigan vaqtinchalik uy-joyda istiqomat qiluvchi yoki vasiylikdagi o'quvchilarga, shuningdek, tasdiqlangan transport bo'yicha istisnoga ega o'quvchilarga oldindan to'langan umumiy transportdan foydalanish xizmatini taqdim etadi va zarur bo'lgan hollarda xarajatlarni qoplaydi (schools.nyc.gov/transportationexceptions). Yaqinlashib kelayotgan kunlarda biz qo'shimcha ma'lumot taqdim etamiz. Maktabingizning transport masalasi muvofiqlashtiruvchisi oilangizga uzilish yuz berganda maktabga qatnash uchun eng maqbul transport yechimini taqdim etishga yordam berish maqsadida siz bilan ish olib boradi.


Biz ko'pchilik o'quvchilar va oilalarimiz sariq avtobus xizmatiga tayanishini va xizmatda uzilish yuz berishi haqidagi ehtimoliy gap-so'zlar ham ularni xavotirga qo'yishini bilamiz, shu sababli ushbu masalani hal qilishda shaffoflik va ko'mak taqdim etish o'ta muhim hisoblanadi. NYCPS muammo yechimi ustida ishlamoqda va muqobil transportga oid rejalarimiz keraksiz bo'ladi deb umid qilib qolamiz.

Biz sizni maksimal qo'llab-quvvatlashga intilamiz.

Hurmat bilan



Melissa Aviles-Ramos



Maktablar tizimi rahbari